



# BUXORO VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

## BUXORO VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQRISHI 2023- YIL YANVAR-IYUN (DASTLABKI MA'LUMOT)



Tel.: 65-223-80-42

[www.buxstat.uz](http://www.buxstat.uz)


## Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

(2023-yil 1-iyul holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatda 4 210 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 445 tasi yangi tashkil etilgan korxonalar sirasida kiradi.


### Jami faoliyat yuritayotgan

(1-iyul holatiga ko'ra)




### Jami yangi tashkil etilgan

(1-iyul holatiga ko'ra)



### Qorako'l



Faoliyat yuritayotgan




yangi tashkil etilgan

## Buxoro viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari

**Sanoat** bu – xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.




Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2023- yilning yanvar-iyun oylarida respublika korxonalari tomonidan 14 708,5 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2022- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 105,3 % ni tashkil etdi.

**Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi** ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.



## Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish, shahar va tuman kesimida




Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 2023- yilning yanvar-iyun oylarida 7 292,1 ming so'mni tashkil etib o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 103,6 % ni ko'rsatmoqda.



ming. so'mda o'sish sur'ati, % da

## Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari


Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 13 909,3 mlrd. so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 94,6 % ni tashkil etdi.




## Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash shahar va tumanlar kesimida

**Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash** – tabiatda qattiq jinslar shaklida uchraydigan (ko'mir, ruda), suyuq holatda uchraydigan (neft) yoki gazsimon holatda uchraydigan (tabiiy gaz) foydali qazilmalarni qazib olishni o'z ichiga oladi.


Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2023- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 161,0 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi 1,1 % ga to'g'ri keldi.



## Yanvar-iyun oylarida yirik korxonalar bo'yicha (O'tgan yilning tegishli davriga nisbatan % da\*)



### Neft va tabiiy gaz qazib olish bilan bog'liq burg'ulash xizmatlari



### Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish



Sanoat mahsulotlari	2022-yil yanvar-iyun	2023-yil yanvar-iyun	Farqi +/-
Oltingugurt, t.	896,0	381,0	-515,0
Gips, t.	83 056,0	435 849,0	352 793,0
Neft va tabiiy gaz qazib olish bilan bog'liq burg'ulash xizmatlari, mln. s'om	68 476,0	96 951,0	28 475,0

\* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

## Ishlab chiqaradigan sanoat shahar va tumanlar kesimida

**Ishlab chiqaradigan sanoat** bu – tarmoq yangi mahsulot chiqarish maqsadida modda yoki komponentlarni, materiallarni, garchi ishlab chiqarishning ma’lum turi uchun birdan-bir to’liq me’zon hisoblanmasa ham, fizik yoki kimyoviy qayta ishlashni o’z ichiga oladi.

2023- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 13 909,3 mlrd. so’mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 108,5 % ini tashkil etdi.






## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati (O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da\*)



O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,1 % ni (2022- yilning yanvar-iyun oylarida – 0,1 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 2,7 % (2,3 %), o'rta-quyi texnologiyali – 53,7 % (52,5 %) va quyi texnologiyasida – 43,5 % (45,1 %) kuzatildi.




Jami sanoat tarkibida koks va neftni qayta ishlash mahsulotlarini ishlab chiqarish sohasining ulushi – 44,6 % (2022- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi – 109,3 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarish sohasining ulushi – 23,4 % (2022- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi – 106,6 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 17,1 % (2022- yil yanvar-aprell oylariga nisbatan fizik hajm indeksi – 109,0 %) ni tashkil etdi.

\* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati (O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da\*)

Shuningdek, ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlarni ishlab chiqarishning ulushi – 4,2 % (2022- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 104,8 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 2,4 % (2022- yilning yanvar-iyun oyilarga nisbatan fizik hajm indeksi 142,8 %) ni tashkil etdi.



### Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

2023- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoatda 475,5 ming tonna avtomobil benzini (2022- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 3,0 % ga ko'paygan), 2 441,0 ming litr aroq mahsulotlari (0,7 % ga kamaydi) ishlab chiqarilgan.


Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-iyun	2023- yil yanvar-iyun	Farqi +/-
Mazut, ming t.	36,2	30,4	- 5,8
O'simlik yog'i (tozalangan), t	3 732,0	5 759,6	2 027,6
Paxta tolasi, t	40 258,0	40 046,0	- 212,0
Yumshoq bug'doy va spelta uni, t.	46 746,4	9 457,1	-37 289,3
Paxta chigiti, t.	58 220,0	66 782,0	8 562,0

\* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

## Metallurgiya sanoati

**Metallurgiya sanoati** – cho‘yan ishlab chiqarish va qora va rangli metallarni qayta ishlash, jumladan, quyma cho‘yan va toza metallarga kimyoviy elementlar qo‘shgan holda superqotishmalar ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko‘ra, metallurgiya sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,3 % bo‘lib, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 0,7 % ga kamaydi va ishlab chiqarish hajmi 38,9 mlrd. so‘mni tashkil etdi.



## Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

**Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish** – minerallar asosida mahsulotlar ishlab chiqarishga tegishli bo‘lgan ishlab chiqarish turlarini o‘z ichiga olib, shisha va shishadan mahsulotlar, keramik buyumlar, polga o‘rnatiladigan qoplamalar, kafel, cherepitsa, terrakota buyumlar, sement va xomashyodan tayyor mahsulotgacha ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko‘ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 4,2 % ni tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 4,8 % ga ko‘paydi va ishlab chiqarish hajmi 624,3 mlrd. so‘mga to‘g‘ri keldi.



## Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish

**Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish** – yeyiladigan qishloq xo'jaligi, o'rmon va baliqchilik (oziq-ovqat) mahsulotlarini, spirtsiz ichimliklarni, mineral suvlarni va boshqa idishdagi suvlarni o'z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 15,9 % ni tashkil etib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 7,2 % ga ko'paydi va ishlab chiqarish hajmi 2 343,9 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



## Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

**Ichimliklar ishlab chiqarish** – spirtsiz ichimliklar va mineral suvlarni ishlab chiqarishni, spirtli ichimliklarni ishlab chiqarishni, asosan fermentatsiya metodi orqali; pivo va vino, shuningdek, distillangan alkogol ichimliklar ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,1 % bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 129,8 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 164,9 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



## To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati


**To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish** – to'qimachilik tolasini tayyorlash va yigirish, shuningdek, to'qimachilik gazlamalarini va tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, to'qimachilik mahsulotlariga va kiyimlarga bezak berish, kiyimlardan tashqari tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.

2023- yilning yanvar-iyun oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 20,4 % ni tashkil etgan, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 7,2 % ga ko'payib, ishlab chiqarish hajmi 2 998,3 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



**Kiyim ishlab chiqarish** – barcha materiallardan (masalan, teri, to'qimachilik gazlamalari, to'qilgan va trikotaj gazlamalari va h.k.) barcha tikish mahsulotlarini (tayyor yoki alohida buyurtma bo'yicha qilingan), kiyimlarning barcha turlari (masalan, ustki kiyim, erkaklar, ayollar va bolalar uchun ichki kiyimlar, ish, ofis, kundalik yoki sport kiyimlari va h.k.) va aksessuarlarni ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-iyun oylarida kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,9 % bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 102,3 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 421,5 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



## Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

**Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish** – kimyoviy jarayonlar yordamida organik va noorganik xomashyo, materiallarni qayta ishlashni va tayyor mahsulot ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko‘ra, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,5 % ni, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 142,8 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 227,5 mlrd. so‘mni tashkil etgan.



## Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish

**Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish** – foydalanish uchun tayyor bo‘lgan xom neft va ko‘mir mahsulotlarini qayta ishlashni o‘z ichiga oladi. Asosiy faoliyati bu – xom neftni komponentlarga separatsiyasida bo‘lgan krekning va distillyatsiyalash yo‘li bilan neftni tozalash. Shuningdek etan, propan va butan kabi gaz mahsulotlarini, shu bilan birgalikda neftni qayta ishlash zavodi mahsulotlarini o‘z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko‘ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 44,6 % ni, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 109,3 % ni tashkil etdi hamda ishlab chiqarish hajmi 6 564,6 mlrd. so‘mga to‘g‘ri keldi.



## Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

**Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish** – rezina va plastikdan mahsulot ishlab chiqarishni, ishlab chiqarishda foydalanadigan xomashyo materiallarini o‘z ichiga oladi. Lekin bu bo‘limga ishlab chiqarishning barcha turlari va materiallari kiradi degani emas.


2023- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko‘ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,9 % ni, fizik hajm indeksi 113,8 % ni tashkil qildi hamda ishlab chiqarish hajmida 126,5 mlrd. so‘m kuzatildi.



## Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish

**Elektr uskunalari ishlab chiqarish** – elektr energiyasini ishlab chiqaruvchi va taqsimlovchi mahsulotlar ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi. Shuningdek, bu bo‘lim elektr yorituvchi, signal uskunalari va maishiy elektr asboblari ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko‘ra, ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi elektr uskunalari ishlab chiqarish sanoatining ulushi 0,6 % ni, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 73,1 % ni tashkil etdi hamda ishlab chiqarish hajmi 83,3 mlrd. so‘m ekani kuzatildi.



## Elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash shahar va tumanlar kesimida

**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash** – elektr energiya-sini, tabiiy gazni, bug'ni, issiq suvni va shu kabildani doimiy tarmoqlar – kabellar, quvurlar, suv quvurlari orqali yetkazib berish bilan bog'liq faoliyatni o'z ichiga oladi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 548,5 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 3,7 % ini) tashkil etgan.



74,8

mlrd. so'mda

FHI, % da





## Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2023- yilning yanvar-iyun oyida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektroenergiya ishlab chiqarish 166,9 % ni, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 96,0 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-iyun	2023- yil yanvar-iyun	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	603,8	1 007,6	403,8
Issiqlik energiyasi, ming gkal	448,9	431,0	-17,9



(O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da\*)



Elektroenergiya



Issiqlik energiyasi




\* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

## Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish, shahar va tumanlar kesimida



**Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish** – qattiq va suyuq, sanoat va maishiy, shuningdek, zaharlangan chiqindilarning barcha turlariga ishlov berish (yig'ish, qayta ishlash va yo'qotish)ni o'z ichiga oladi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 89,6 mlrd.so'mga (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6 % iga)

yanvar-iyun  
mlrd. so'mda



yanvar-iyun  
FHI, % da



mlrd. so'mda

FHI, % da



## Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish


O'tgan yilning mos davriga nisbatan oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 14,7 % ga oshganligi kuzatildi. Shuningdek axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 20,5 % ga pasayishi kuzatildi.

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-iyun	2023- yil yanvar-iyun	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	8 444,7	9 685,4	1 240,7
Axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar mln.so'm	245,5	195,2	- 50,3

(O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da\*)

Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar

Axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar mln.so'm



\* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

## Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2023- yilning yanvar-iyun oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi 3 110,0 mlrd.so'mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 105,0 %, uning jami sanoatdagi ulushi 21,1 % ga to'g'ri keldi.

### Oziq-ovqat mahsulotlari



54,4 %

2023-yil  
yanvar-iyun



33,5 %

2022-yil  
yanvar-iyun



2023- yilning yanvar-iyun oylarida viloyatida 1 691,2 mlrd. so'mlik oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 9,1 % ga oshdi va 1 418,8 mlrd. so'mlik nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 100,1 % ga yetdi.

### Nooziq-ovqat mahsulotlar



45,6 %

2023-yil  
yanvar-iyun



66,5 %

2022-yil  
yanvar-iyun




Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari 54,4 %, nooziq-ovqat mahsulotlar 45,6 % ni tashkil etdi.

## Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish



**Iste'mol tovarlari** – birinchi navbatda, shaxsiy iste'mol uchun yoki foyda olish bilan bog'liq bo'lmagan boshqa maqsadlarda ishlatiladigan sanoat mahsulotlari.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 3 110,0 mlrd. so'mni tashkil etib, 2022- yilning yanvar-iyun oylari mos davriga nisbatan 105,0 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 21,1 % ga to'g'ri keldi.




mlrd. so'mda

o'sish sur'ati, % da






Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmida iste'mol tovarlarining ulushi





## Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish, shahar va tumanlar kesimida

Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 792,1 ming so'm bo'lgani holda, Qorovulbozor tumanida – 9 730,4 ming so'mni, Kogon tumanida – 3 309,9 ming so'mni, Buxoro shahrida – 2 313,8 ming so'mni tashkil etdi.





## Shahar va tumanlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Buxoro viloyatida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining jami hajmi 1 418,8 mlrd. so'm bo'lib o'tgan yilning mos davrida nisbatan o'sish sur'ati 100,1 % ni tashkil etdi.





*Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmidagi ulushi*





## Shahar va tumanlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Buxoro viloyatida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining jami hajmi 1 691,2 mlrd. so'm bo'lib o'tgan yilning mos davrida nisbatan o'sish sur'ati 109,1 % ni tashkil etdi.



*Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmidagi ulushi*




*mlrd. so'mda*      *o'sish sur'ati, % da*



## Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 5 377,4 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 36,6 % ni tashkil etadigan boʻlsa, 2022- yilning yanvar-iyun oylarida kichik biznes subyektlarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 37,5 % ni tashkil etgan.



## Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi

Viloyat sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori o'sish sur'atlariga erishishda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 153 ta loyiha bo'yicha 1 864,7 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi. Mahalliyashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlardan 14,6 mln. AQSh dollari miqdorida eksport qilindi. Mahalliyashtirish dasturi doirasida 2023 yil yanvar - iyun oylarida 83 ta yangi ish o'rinlari yaratildi, o'tgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda yangi tashkil etilgan ish o'rinlari soni 26,5 % ni tashkil etdi.

### Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining asosiy ko'rsatkichlari

	2022-yil yanvar-iyun	2023-yil yanvar-iyun
Loyihalar soni, birlik	148	153
Korxonalar soni, birlik	134	137
Ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm	1 279,1	1 864,7
Eksportga qilingan mahalliyashtirilgan mahsulot hajmi, mln. AQSh dollar	13,0	14,6
Yaratilgan yangi ish o'rinlari, birlik	313	83